

INTRODUKSIYA SHAROITIDA *HIBISCUS SYRIACUS* L. NING GULLASH BIOLOGIYASI

A.L. Raximov, N. Yu. Xudoyqulova

Qarshi davlat universiteti. Qarshi. O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada, muallif tomonidan Malvaceae oilasiga mansub hayotiy shakliga ko‘ra buta Hibiscus syriacus L. ning gullash biologiyasi Qarshi shahri sharoitida o‘tkazilgan tajriba sinov natijalari berilgan.

Kalit so‘zlar: *Malvaceae, Hibiscus syriacus L., Suriya gibiskusi, introduksiya, fenologiya,*

Introdusentlarning yangi sharoitda gullashi va urug‘ hosil qilishi adaptatsiyaning muhim ko‘rsatkichidir. Chunki o‘simliklarning ekologik omillarga bo‘lgan talabi yangi sharoitga mos tushgandagina ular gullaydi, urug‘ hosil qiladi va pirovardida avlod qoldiradi. Bu esa juda ko‘plab o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan [5. 48 b].

O‘rganilayotgan *Hibiscus syriacus* L. (Suriya gibiskusi) istiqbolli manzarali o‘simlik hisoblanadi. *H. syriacus* L. eramizgacha yoki eramizning boshida O‘rta Osiyo va Tibet orqali Shimoliy Xitoydan Yevropaga keltirilgan [1.28-29 b]. O‘zbekistonga jumladan Samarqandga 1894 yil, Janubiy O‘zbekistonga Denov dendrariysiga 1930 yil, Qashqadaryoga 1980 yiildan boshlab iqlimlashtila boshlandi [2. 165 b.]. Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra *Hibiscus syriacus* L. Suriya atirguli, Suriya malvasi va ketmiya kabi nomlar bilan ataladi. Bu o‘simlik Janubiy Koreyaning milliy guli sifatida qabul qilingan bo‘lib, ushbu davlatning bayrog‘i, gerbi, tangalarida gulining shakli aks ettirilgan, Koreys tilida o‘simlikni Mugunghwa deb nomlashadi [3. 158 b]. *Hibiscus syriacus* L. buta yoki kichikroq daraxt, bo‘yi 5-6 m gacha boradi. Nikita botanika

bog'idagi 60 yoshli *H. syriacus* L. ning bo'yi 3 m [1]. Toshkent sharoitida o'sayotgan 8 yoshdagi o'simlikning bo'yi 5,5 m.

Urug'idan unib chiqqan *H. syriacus* L. odatda tabiiy muhitida va ko'pgina mamlakatlarda, jumladan Amerika, Rossiya, Tojikiston, Qirg'izistonda 3-4 yoshligidan gullab, meva hosil qiladi va urug' bera boshlaydi. Toshkent shahri sharoitida ikkinchi yildan gullab meva hosil qiladi. Qarshi shahrida birinchi yildan gullaydi, ikkinchi yili meva hosil qiladi [4. 165-167 b].

***Hibiscus syriacus* L ning gullash fenologiyasi**

jadval

Kuzatilgan yil	G'unchalash davri	Gullash			
		boshlanishi	yoppasiga	tugashi	davomiyligi
2021	12.04	24.05	9.06	28.10	158
2022	24.04	6.06	25.06	20.10	137

G'unchalar odatda aprel oyining 2-3-dekdasidan paydo bo'ladi. 2021- yil 12-aprelda g'unchalagan bo'lsa, 2022- yil 24- aprelda ilk g'unchalar paydo bo'ldi. G'unchalar har bitta vegetativ shoxchada 8-11 tani tashkil etib, ular faqat shu yilgi novdalarda hosil bo'ladi. G'unchalar o'lchami kichik, eni 1-2 sm, bo'yi 2-2,5 sm bo'lib, 3 yoshli daraxtda g'unchalar soni o'rtacha 80-100 tani tashkil etdi.

Gullash davri boshlanishidan oldin, g'unchalar 15 kun davomida rivojlanadi, boyiga va eniga o'sadi. Qarshi shahri sharoitida may oyining 3 dekadasida gullashni boshlaydi. Gullarning ochilishi generativ shoxning uchiga qarab borish tartibida bo'ladi.

Yoppasiga gullash davri dastlabki gul ochilgandan keyin 10-20 kundan o'tib boshlanadi. Shuni alohida qayd qilish lozimki, *Hibiscus*ning yoppasiga gullash davri 100-130 kun davom etsa, gullash davomiyligi 150 kuni tashkil etadi. Bunday uzoq muddat gullashi o'simlikni O'zbekiston sharoitida ko'paytirishda va ko'kalamzorlashtirishda muhim xususiyatdir. Gullashining uzoq muddat davom etishi eng avvalo bu o'simlikni tropik va subtropik iqlimdan chiqishi, qolaversa o'sishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi.

H. syriacus L.ning mevasi har bir gul ochilib bo'lgandan keyin 15-20 kun o'tkach shakllana boshlaydi. Uning mevasi ko'sak meva. Dastlabki ko'saklar Qarshi sharoitida

odatda iyun oyining oxiriga, iyul oyining boshiga to'g'ri keladi. Yangi hosil bo'lgan urug' o'rta hisobda 20-30 kun davomida rivojlanib, to'liq pishadi. Bu jarayon butun generativ davrda 2-3 marotaba takrorlanadi.

2022 yillarda o'simlikning gullashi issiq yoz faslida harorat $+42^{\circ}\text{C}$ da o'simlikning gullashi sekinlashdi, harorat $+42^{\circ}\text{C}$ dan oshganda gullashi deyarli to'xtadi. Harorat $+38^{\circ}\text{C}$ dan pasayganda gullash yana davom etdi. Gullar yaxshi ochilib turish uchun optimal harorat $+22-35^{\circ}\text{C}$ ekanligi aniqlandi.

Hibiscus syriacus L. ning bizni sharoitimizda qimmatli xususiyatlaridan biri uning uzoq muddat chiroyli gullashi, gullarining formalar bo'yicha xilma-xilligi, tashqi muhit omillariga chidamliligi, ko'p miqdorda va sifatli urug' hosil qilishi, urug'idan va qalamchalaridan oson ko'payishi ushbu turni Respublikamiz sharoitidagi istiqbolini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вильданова К.Д. Декоративные кустарники. Шарк. Ташкент. 2006. –С.28-29. (96с.)
2. Raximov A. Qarshi shahri sharoitida *Hibiscus syriacus* L. ni bioekologik xususiyatlari. O'zbekistonning bioekologik muammolari. Respublika ilmiy va ilmiy-texnika anjumani materiallari. 2016 . 165 b.
3. Raximov A. *Hibiscus syriacus* L. ning barglarining o'zgaruvchanligi. Bioxilmaxillik, o'simlik va hayvonot genofondiini saqlash va ulardan samarali foydalanish. Respublika ilmiy anjumani. T.: 2014 118 b.
4. Rahimov A.L, Yoziyev L.X. Introduksiya sharoitida *Hibiscus Syriacus* L. urug'larining unuvchanlik xususiyati. O'simliklar introduksiyasi: yutuqlari va istiqbollari. Qarshi, 2011. 165-167b.
5. Yoziyev L.H., Boysunov B.X. Janubiy O'zbekistonga meliya daraxtini introduksiya qilish natijalari va istiqbollari. Toshkent, 2009. 48 b.